



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

D. O. Himmataliyev¹, S. Y. Ashurova², Sanam Faxriddinovna Abduvositova³

¹ Pedagogika fanlari doktori, professor

² Pedagogika fanlari nomzodi, professor

³ Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fakulteti pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-kurs talabasi

MAVZULARARO BOG'LANISH KLASTERINI INNOVATSION DIDAKTIK O'YINLAR VA MUSTAQIL ISHLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar matematika darslari misolida ta'lim sifatini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, mavzulararo bog'lanish klasterini turli innovatsion didaktik o'yinlar hamda mustaqil ishlar orqali yanada rivojlantirish mazmuni, yo'llari va pedagogik shart –sharoitlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, kreativ, faollik, bog'lanish, klaster, jarayon.

Biz bilamizki o'yin faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun darslarni o'zlashtirishning eng maqbul va eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Chunki bolalar ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalar o'qishdan ko'ra o'yin faoliyatini ko'proq tanlashadi. Chunki o'quvchilar o'yin paytida o'zlarini erkin sezishadi, qo'rquv va tortinchoqlik hislarini yo'qoladi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarni qiziqtiribgina qolmay ularning aqliy faolligini oshirish vositasi ham hisoblanadi. O'yinlar o'quvchilarning psixologik holatini faollashtiradi va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini, intilishlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zlari uchun qiyin sanalgan muammolarni osongina o'yin ichida hal qila oladilar va bu ularga zavq bag'ishlaydi. Uddalay olayotganlikdan o'zlarini qahramondek his qiladilar va bu ularni yanada izlanuvchanlikka yanada shijoatli bo'lishga undaydi. G'alaba qozonishga bo'lgan harakatini oshiradi. Bundan tashqari didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati ham anchagina. O'yin

orqali biz bolalardagi hamjihatlik, tirishqoqlik, o‘zaro hurmat, mehnatsevarlik, chaqqonlik kabi ijobiy hislatlarni tarkib toptirish imkoniga egamiz.

Didaktik o‘yinlarning maqsad va vazifalari shundan iboratki, didaktik o‘yinlar ta’lim berish maqsadida qo‘llaniladigan o‘yin turi bo‘lib, unda bor ta’limiy maqsadlar aynan o‘yin orqali amalgam oshiriladi. Didaktik o‘yinlar yoki mustaqil ishlar darsdan ko‘zlangan maqsad va erishilishi lozim bo‘lgan jihatlaridan kelib chiqqan holda ma’um qonun qoidalar asosida tashkil qilinadi. Bunday o‘yinlardan yangi mavzuni tushuntirishda, mustahkamlashda yoki chuqurroq o‘rgatish va takrorlashda keng foydalaniladi. Bola o‘yin orqali vaqtini chog‘ o‘tkazibgina qolmay, o‘rganishi kerak bo‘lgan bilimlarni egallaydi, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi. O‘yin jarayonida bolada bilishga bo‘lgan intilish oshadi. Chunki o‘yin shartlari boladan faollikni talab etadi. O‘yindan chiqib ketishni yoki mag‘lubiyatni istamagan bola o‘z o‘zidan bilimlarni o‘rganishga, yoki o‘rganilgan bilimlarni eslashga takrorlashga va amalda sinashga harakat qiladi. Didaktik o‘yinlarning asl mohiyati ham aslida aynan mana shunda. O‘yin faoliyati orqali bilim darajasini oshirish.

Boshlang‘ich sinflarda berilgan mavzularni o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, mavzulararo bog‘lanish klasterini faollashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi. Darsliklarning murakkablashuvi hamda zamonaviy bilimlarning kiritilishi, ma’lumotlarning ko‘pligi va yangiligi yoki o‘quvchining diqqati tarqoqligi, darsning qiziq emasligi o‘quvchilarni darslikdagi barcha mavzularni to‘liq o‘zlashtira olmasliklarining sababchisiga aylanmoqda. Mavzularning toliq o‘zlashtirilmaganligi esa o‘quvchini keyingi mavzularni ham o‘zlashtirishni uddalay olmasliklariga sabab bo‘ladi. Chunki mavzular bir biriga bog‘liq hamda osondan murakkabga qarab berib boriladi. Agar pedagog tomonidan darslikda berilgan mavzularni bir biriga bog‘lab, takrorlab borilsa, birinchi yoki ikkinchi darsda o‘rganilgan mavzu, o‘n beshinchi darsni o‘rganayotgan bolani esidan chiqmagan va o‘sha mavzu yuasidan ham bilim ko‘nikmalarga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Bunga qanday erishish mumkin degan savol tug‘ilishi tabiiy. Albatta buning turli yo‘llari ishlab chiqilgan. Lekin mavzulararo bog‘lanish klasterini didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar yordamida takomillashtirish maqsad sari qo‘yilgan eng to‘g‘ri qadamdir. Buning sababi esa yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy faoliyati o‘yin ekanligi va o‘yin orqali ko‘zlangan maqsadga tezroq yetish mumkinligidadir.

Didaktik o‘yinlardan muntazam va davomli foydalanish juda muhimdir. Mavzular ketmaketligida va unga mos tarzda olib boriladigan didaktik o‘yinlar bolalarda qiyinchilik tug‘dirmaydi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllanishiga yordam beradi. Bu ishonch fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. O‘yin jarayonida esa uengallagan bilimlari va tajribalariga tayanadi. Chunki didaktik o‘yinlar bolaning amaliy faoliyati hisoblanadi. Bolalar o‘yin qonun qoidasiga ko‘ra aniq vazifalarni bajarishga harakat qiladilar. Bu esa ularning diqqatini jamlashga yordam beradi. Diqqat markazda bo‘lgan ma’lumotlar esa bola ongiga tezda muhrilanadi. Har bir darsni diqqat bilan tinglagan bola o‘yin davomida uni tezda hayoliga keltira oladi. Bu esa mavzu yuzasidan ko‘nikmaga ega ekanligini isbotidir.

Keling buni 1-sinf matematika darslari misolida ko‘rib chiqamiz. Endigina maktabga qadam qo‘ygan bu o‘quvchilar uchun maktab qonun qoidalarining o‘zi ham katta muammodek tuyuladi. Darsning talablari ularni vahimaga solishi mumkin. Chunki bu holatlar uning uchun yangi. O‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tish jarayoni ular uchun biroz murakkablik tug‘dirishi mumkin. Ichki energiyaga to‘la bolajonlar 45 daqiqalik dars davomida diqqatni bir joyga jamlay olmaydilar. Ular rangbaranglikni hush ko‘radilar. Bunday vaziyatlarda esa darsimizga qo‘yilgan talablar va rejada bajarilishi kerak bo‘lgan

ishlarni qanday muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin? Albatta didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar yordamida.

Matematika darsligining har bir bobi, har bir mavzusi uchun bolalarning yoshi va qiziqishiga mos bo‘lgan didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlarni rejasini tuzib olish zarur. Tashkil qilinayotgan o‘yinlar mavzu mohiyatiga mos, maqsadga qaratilgan bo‘lishi darkor. O‘tilgan va yangi mavzu o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘zida mujassam qilmog‘i zarur. Darslikni boshida keltirilgan mavzular darslikni so‘ngida berilgan mavzularga ham bevosita bog‘lanishi zarur. Shundagina o‘quvchilar egallagan bilim ko‘nikmaga so‘ngra malakaga aylanishi mumkin. Bu esa darslikda berilgan barcha mavzular to‘laligicha o‘zlashtirilishiga erishish mumkin.

Misol uchun 2021 yil nashrdan chiqqan 1-sinf matematika darsligining 1-bobi narsalarning to‘plamlari haqidagi mavzularga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bobi 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar haqida. Ikkala bobdagi mavzularni bir biriga bog‘lovchi didaktik o‘yinlar yoki mustaqil ish namunalarini tuzib olish kerak. Bu o‘qituvchidan kreativlikni talab etadi.

1-bobda bolalarga to‘plamlar, narsalarning hossalari, ularning joylashuvi, ularni taqqoslash haqida ma’lumotlar beriladi. Ammo ikkinchi, uchinchi, yoki o‘ninchi bobga kelganda ham to‘plamlar haqidagi ma’lumotlar bolaning yodida bo‘lishini ta’minlash zarur. Bolaga o‘yinlar orqali berilgan mavzular ko‘proq esida qoladi. Bola qachondir o‘ynagan o‘yinini eslash orqali ma’lumotlarni ham yodga oladi.

Masalan: darslikning uchinchi bobida bolalar 10 ichida qo‘shib ayirish haqida bilib oladilar. To‘plamlar haqida esa biroz unitishadi. Bu mavzularni bog‘lash uchun esa quyidagicha topshiriqlarni mustaqil bajarishlari uchun berish mumkin.

1.o‘quvchilarga shablonlar yoki ekran orqali bir nechta qiymati topilishi kerak bo‘lgan misollar beriladi. Topshiriq esa quyidagicha: berilgan misollarni qiymatini toping va ularni “qiymati beshdan katta” va “qiymati beshdan kichik” misollar to‘plamiga ajratib ikki ustunga yozing.

2+3	4+5	8-2	9-5	4+3
6-3	10-6	3-1	4+2	5-4

Qiymati 5 va undan katta bo‘lgan sonlar to‘plami: qiymati 5dan kichik bo‘lgan sonlar to‘plami:

$$2+3=5$$

$$4+5=9$$

$$8-2=6$$

$$4+3=7$$

$$1+6=7$$

$$9-5=4$$

$$10-6=4$$

$$3-1=2$$

$$5-4=1$$


$$6-3=3$$

Yuqorida ko‘rsatilgan mustaqil ishni amaliy tarzda o‘yin tariqasida ham amalga oshirsa bo‘ladi. O‘quvchilarga misollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Bu o‘yinda butun sinfni qamrab olish ham mumkin. Sinf xonasining ikki burchagiga yoki yonmayon qilib ikki doira chiziladi va to‘plamlar nomi yoziladi. Birinchi to‘plamga “qiymati besh va undan yuqori” bo‘lgan misollar to‘plami, ikkinchisi “qiymati beshdan kichik” bo‘lgan misollar to‘plami. Buni ranglarda ham ifoda etsa bo‘ladi. O‘yinga start berilgandan so‘ng o‘yin qoidalariga ko‘ra kartochkasida berilgan misolning qiymatini hisoblab o‘zi tegishli bo‘lgan to‘plamga

yani doira ichiga kirib olishi zarur. O‘yin shartiga tezlikni qo‘shadigan bo‘lsak, bu o‘yinga yanada qiziqishni oshiradi. To‘plamlarni hosil qilgandan so‘ng, to‘plam a‘zolari bir birlarini kartochkalarini tekshirib, agar orasida begona to‘plamga tegishlisi borligini aniqlasa, uni o‘z doiralariidan chiqarib yuborishadi. Chetlatilgan o‘quvchi o‘z to‘plamini topolmagani uchun, misolini xato yechganligi uchun o‘yindan qarsaklar bilan chiqariladi. O‘yin bir necha marotaba o‘ynalishi va g‘olib o‘quvchilar aniqlanishi mumkin. G‘olib o‘quvchilarni munosib rag‘batlantirish esa juda zarur.

Darslikning to‘rtinchi bobi geometrik shakllar deb nomlangan bo‘lib ,yigirmatta mavzuni o‘z ichiga olgan. Bu bobda o‘quvchilar geometrik shakllar haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu mavzularni ham oldin o‘tilgan mavzularga bog‘lash mumkin. Masalan: aralash shakllar berilsin. O‘quvchilar ularni yassi shakllar va fazoviy shakllar to‘plamiga ajratib berishi mumkin. O‘quvchilar bu orqali ham geometric shakllar, ularning turlari haqidagi bilimlarini , hamda to‘plam tushunchasini mustahkamlaydilar. Bundan tashqari birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlarga bog‘laydigan bo‘lsa, shakllarni raqamlab tartib bilan joylashtirish haqidagi topshiriqni berish o‘rinli. O‘n ichida qo‘shish mavzulariga bog‘lanadigan bo‘lsa quyidagicha “Shaklni top” o‘yini o‘rinli bo‘ladi.

“Shaklni top” o‘yini



Ekran orqali o‘quvchilarga turli fazoviy va yassi shakllar ko‘rsatiladi. Har bir shaklga raqamlar yozilgan bo‘ladi. Masalan kvadrat ichiga 4 soni, kubga 5 vahokozo. Raqamlar o‘quvchilarga aniq korinishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘n ichida yoki mavzudan kelib chiqib misollar beriladi. O‘quvchilar misolni qiymatini hisoblaydilar, lekin sonni emas, misolning qiymati yozilgan shakl nomini aytadilar, masalan ikki bilan uchning yig‘indisi beshga teng. O‘quvchilar besh demaydilar. Aksincha besh soni yozilgan shaklni misol uchun kub deb javob berishadi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilardagi ziyraklik, topqirlik, tezkorlikni ham oshirishimiz kerak. Bir paytning o‘zida ular ham matematik hisoblashni shaklni nomini birinchi bo‘lib aytishni uddalashlari kerak bo‘ladi. Birinchi to‘g‘ri bajargan o‘quvchi g‘olib sanaladi va bir ochkoni qo‘lga kiritadi.

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga hamda bu jarayon ishtirokchilarini faolligini, ulardagi tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga ahamiyat berish zarur.

Didaktik o‘yinlarni tanlayotganda albatta sinfning kuchi, ulardagi imkoniyat, shart sharoitlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ham inobatga olinadi. Eng asosiysi o‘yin bola uchun samarali va qiziq bo‘lishi , imkoniyati darajasidan kelib chiqib tanlanishi kerak. Pedagogik shart –sharoitlar ham inobatga olinishi zarur. O‘quvchilar bilim saviyasiga mos bo‘lishi, ulardagi bor bilimlarni mustahkamlash, yoki ularni to‘ldirish maqsadiga qaratilishi kerak. Didaktik o‘yinlarni tashkil qilishda, yangi o‘yinlarni shartotga qarab o‘zgartira

olishida o'qituvchining pedagogic mahorati, bilim va tajribasi, o'yinga bo'lgan munosabati, o'quvchilar bilan qanchalar chiqisha olishi, kreativ yondasha olishi, innovatsion g'oyalarga ega ekanligi, umuman aytganda izlanuvchanligi, ijodkorligi muhim kasb etadi. O'qituvchi o'yinlardan foydalanib, o'quvchilardagi yashirin qobilyatlarni kashf qila oladi.

O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi va o'sha fan bo'yicha bilimlarining puxtaligi bu o'qituvchining darsni qanday tashkil qilganligiga, mahoratiga va fanni o'qitish metodikasiga chambarchas bog'liq. Didaktik o'yinlar esa o'quvchilarni darsga jalb qila olishi, mavzularni puxta o'rgata olishi, darslikda verilgan barcha mavzularni o'quvchilar ongida muxrlanishida eng yaxshi va samarali quroldir. Undan o'rinli foydalanish esa har bir pedagogning o'z tajribasiga bog'liq. Mustaqil ishlar ham har bir darsning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Chunki o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda bajarib sinab ko'rishlari lozim. O'z fikr mulohazalarini mustaqil tarzda ifoda etishga o'rgatish, ularning fikri qanchalar muhim ekanliklarini ko'rsatish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Mustaqil ishlarni ham o'yin tariqasida o'tkazish esa bolaga yanada ko'proq zavq bag'ishlaydi. Zero M.Gorkiyning fikricha: "O'yin-ijodiyot, o'yin-mehnatdir, o'yin orqali bola olamni bilishi demakdir".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, biz maqsad sari olg'a intilar ekanmiz, oldimizda yo'llar paydo bo'laveradi. Eng to'g'ri yo'lni topish va u orqali manzilga yetish bu bizning qo'limizda. Hozirgi kunda metodikalarda o'qituvchilar uchun juda ko'p didaktik o'yinlar va mustaqil ishlash uchun topshiriqlar keltirilgan. O'qituvchining vazifasi esa uni o'z mavzusi, o'z o'quvchilarining bilim saviyasi yoki sinfxonadagi imkoniyatlardan kelib chiqib o'zgarirish, moslashtirish va uni o'tkazish uchun oldindan tayyorgarlik ko'rishdir. Yana bir eng muhim jihati o'yinlarni tizimli va uzviylikda tashkil qilishda va mavzulararo bog'lanish klasterini tog'ri ishlata olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amrilloyevich, I. A. L. (2022). Cognitive Research in Education: Foreign Experience. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 1-4.
2. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. M.E.Jumayeva, Z.G'.Tadjiyeva
3. Matematika. 1-sinflar uchun darslik
4. Baxranovna, R. M. (2022). BOSHLANG 'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARIDA QADRIYATLAR ORQALI O 'QUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASH. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(2), 130-135.
5. Raximqulova, M. (2021). TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV-O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 118-121.
6. Bakhronovna, R. M. (2022). Formation Of Ecological Culture Of Primary School Pupils Through Natural Sciences (Example Of 2nd Grade Science Textbook). *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 418-422.
7. Sharipboevna, F. G. Cognitive Approach to Literature Education: Memory, Thinking and Cognition. *JournalNX*, 549-551.